



**ISHLAB CHIQARISH TASHKILOTLARIDA MEHNAT
SHAROITLARINI YAXSHILASHNING IJTIMOY-IQTISODIY
NATIJALARINI BAHOLASH.**

*Assessment of the socio-economic results of improving working conditions in
production organizations.*

Turakulova Gulasal Zohidjon qizi

Andijon davlat texnika instituti, assistenti

Annotatsiya. Bugungi kunda ish beruvchilar o'zining ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish korxonasida xodimlarning mehnatini oqilona tarzda tashkil qilish, undan samarali foydalanish va har bir hodimning bajargan ishiga va uning natijalariga to'g'ri baho berish uchun berilgan vazifani (ishni yoki xizmatni) bajarishga qancha mehnat (qancha vaqt) sarf qilganini bilish kerak. Shuning uchun ham har qanday ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish, mehnat sarfida son va sifat mutanosibliklari belgilanishini va ijtimoiy mehnatni aniqlashni talab etadi.

Abstract. Today, employers need to know how much labor (how much time) each employee spent on performing a given task (work or service) in order to rationally organize the labor of employees in their production or service enterprise, use it effectively, and correctly evaluate the work performed and its results. Therefore, any production or service requires determining the quantitative and qualitative proportions of labor consumption and determining social labor.

Kalit so'zlar: *ish vaqti, nofsesfera, gomosfera, ergonomika, samaradorlik, noqulay mehnat sharoiti.*

Keywords: *working hours, noosphere, homosphere, ergonomics, efficiency, unfavorable working conditions.*



Bugungi kunda bu masalalar ishlab chiqarish korxonalarida har tomonlama asoslangan mehnat sarfi normalari yordamidagina to'g'ri va puxta hal qilinishi mumkin. Ish beruvchi mehnatni huquqiy – tashkiliy asoslarsiz tashkil qila olmaydi, korxona faoliyatida ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yo'lga qo'yish, korxona rejasining texnik bazasini ta'minlash kabi omillar aynan shunga bog'liq. Mehnatga haq to'lash normalari ayrim korxona faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lganidek, butun xalq xo'jaligi jabhalarining iqtisodida ham katta ahamiyatga ega.

Ish beruvchilarning sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishga bo'lgan iqtisodiy manfaatlarining amaldagi mexanizmi, shuningdek, unda ijtimoiy sug'urta jamg'armasining ishtiroki yuzasidan ko'plab masalalar haligacha chuqur o'rganilmagan.

Ayrim korxonalarda korxonalardagi noqulay mehnat sharoitlari orqali yetkazilgan zarar yetarlicha katta ulushni egallaydi. Ko'pincha, ish vaqtida hodimlarning kichik jarohatlanishi e'tiborga olinmaydi va mehnat muhofazasi boshqaruv tiziming chora-tadbirlariga jarohatlanishlarning III va IV darajasi bo'yicha kompensatsiya va boshqa xil imtiyozlar qo'llaniladi. [1].

Noqulay mehnat sharoitlari odatda, korxonalarda ijtimoiy - iqtisodiy holatning sustlashishiga olib keladi. Ammo, ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan og'ir darajadagi shikastlanishlar va kasbiy kasalliklarning ijtimoiy va iqtisodiy yo'qotishlardagi xarajatlarni jabrlanganlarning oilalariga, ish beruvchi yoki davlat tomonidan qoplab beriladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida mehnat muhofazasi xavfsizligining buzilishi odatda, ish samaradorligining pasayishi yoki ko'p xollarda maxsulot sifatiga jiddiy zarar ko'rishiga, texnologiyalarning to'xtab qolishiga, ish davomiyligining pasayishiga va buning oqibatida korxona ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlarining pasayishiga olib keladi[2,3].



Mehnat vazirligining hulosalariga ko'ra, mehnat xavfsizligini oshirish rivojlangan mamlakatlarning eng asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlarda ish beruvchilar malakali xavfsizlik muhandislarini ishga jalb qilishni to'g'ri deb hisoblashadi, chunki ular mehnat muhofazasi uchun ajratilgan mablag'larni to'g'ri yo'naltirishadi va bu orqali rejadan tashqari yo'qotishlarni oldini olishadi [4].

Bugungi kunda ishlab chiqarish korxonalari rahbarlari bozor iqtisodiyotiga o'tishda sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish bo'yicha yetarlicha ko'nikmalarga ega emas. Chunki kundan kunga mehnat muhofazasi talablarini oshirish, ishlab chiqarish tashkilotlarida mehnat sharoitlarini yaxshilashning ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini baholashning ilgari mavjud bo'lgan bir qator mexanizmlari (usullari) o'z ahamiyatini yo'qotgan.

Mehnatni muhofaza qilishni boshqarishning zarur shartlaridan biri bu amalga oshirilayotgan chora – tadbirlar samaradorligini aniqlashdan iborat. Ushbu baholash asosan, mehnatni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va uni amaliyotga jalb qilishga asoslanadi. Korxona va tashkilotlar darajasidagi modernizatsiyalash jarayonlarini ish vaqti sarflarini o'rganmasdan turib, uni o'rganish usullarini takomillashtirish mumkin emas. Ish vaqtidan oqilona foydalanishning barcha darajalarining tarkibi va mohiyatini tubdan takomillashtirish iqtisodiy tizimni isloh qilishning hal qiluvchi omillaridan biriga aylanmoqda, butun dunyoda bo'lgani kabi respublikamizda ham ish vaqti korxonaning asosiy resursi, butun tashkilotning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omil sifatida qaralmoqda. Ish vaqti asosiy iqtisodiy kategoriya bo'lib, ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga sarflanayotgan mehnat sarflarini o'lchovchi asosiy iqtisodiy kategoriyadir. Shuning uchun ish vaqti nafaqat bosh ishlab chiqarish resursi bo'lib, balki ishlab chiqarish samaradorligini belgilab beruvchi bosh mezon bo'lib ham hizmat qiladi.



Mehnat muhofazasi uchun ajratilgan tadbirlarning samaradorligi muhandislik, ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Mehnatni muhofaza qilish choralarini tadbiq qilish va amalga oshirish uchun texnik jihatlar bilan bir qatorda iqtisodiy jihatlarni ham hisobga olish kerak[5].

Mehnatni muhofaza qilish tadbirlari xarajatlarining iqtisodiy asoslanishi mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun mablag'lar miqdorini aniqlash, ularni to'g'ri yo'naltirish maksimal samara beradi. Ushbu hisob-kitoblar yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari va foydalarini taqqoslash asosida amalga oshiriladi.

Mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha chora – tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini hisoblash investitsiya loyihalarini baholashda eng qiyin hisob-kitoblardan biridir. Ushbu hisob-kitobning murakkabligi shundan iboratki, korxonada maqbul bo'lgan yoritishni ta'minlash, mikroiklim parametrlarini normallashtirish, shovqin darajasini, umumiy va mahalliy tebranishlarni kamaytirish, ish joyidagi havo tarkibini normallashtirish, uskunaning shikastlanish xavfini kamaytirish va boshqalarni o'z ichiga olgan chora-tadbirlarning natijalari uzoq vaqtni talab qiladi.

Mehnatni muhofaza qilish choralarining samaradorligiga mehnat sharoitlarini yaxshilash orqali erishiladi, bu baxtsiz hodisalar va aniqlangan kasbiy kasalliklar sonining kamayishi, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik kunlarining kamayishi, ishchilarning sog'lig'i yaxshilanishi, mehnat unumdorligining oshishi va boshqalar bilan tasdiqlanadi. Korxonada mehnat muhofazasi uchun ajratilgan mablag'larni boshqa yo'nalishlar uchun saeflash ta'qiqlanadi. Quyida "Samoinur Akfa" MCHJ da yillik hisobot keltirilgan.



№	Sarf yo'nalishi	Rejalashtirilgan summa (so'm)	Amalga oshirilgan summa (so'm)	Izoh
1	Xodimlarni maxsus kiyim, oyoq kiyim va boshqa himoya vositalari bilan ta'minlash	25 000 000	24 500 000	To'liq ta'minlandi
2	Mehnat xavfsizligi va sanitariya bo'yicha o'quv-seminarlar o'tkazish	7 000 000	6 800 000	2 ta seminar o'tkazildi
3	Ish joylarida yoritish va shamollatishni yaxshilash uchun uskunalar	10 000 000	9 500 000	Yangi chiroqlar o'rnatildi
4	Yong'inga qarshi vositalarni xarid qilish va texnik xizmat ko'rsatish	6 000 000	5 700 000	O't o'chirgichlar yangilandi
5	Ish joylarida xavfsizlik belgilarini o'rnatish va yangilash	3 000 000	2 900 000	Belgilar almashtirildi
6	Sog'liqni saqlash (birinchi tibbiy yordam qutilari, tibbiy ko'riklar)	5 000 000	4 800 000	Yangi qutilar ta'minlandi



№	Sarf yoʻnalishi	Rejalashtirilgan summa (soʻm)	Amalga oshirilgan summa (soʻm)	Izoh
7	Ishlab chiqarishdagi xavfli uskunalarni modernizatsiya qilish	20 000 000	19 200 000	2 ta uskuna almashtirildi
8	Maxsus laboratoriya tekshiruvlari va auditlar oʻtkazish	4 000 000	3 800 000	Yillik audit yakunlandi
Jami		80 000 000	77 200 000	

1-rasm. “Samoinur akfa” MCHJ da mehnat muhofazasi uchun ajratilgan mablagʻlar.

Ushbu jadvaldan koʻrinib turibdiki, korxona mehnat muhofazasi uchun ajratilgan yillik mablagʻ 80 000 000 (sakson million) soʻmni tashkil qiladi, sarflangan mablagʻ esa 77 200 000 soʻmni tashkil qiladi. Ammo korxonada noqulay ish sharoiti tufayli hodimlar sogʻligi yoʻqotilayotganligini inobatga olsak, mablagʻlarni taqsimlash boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqamiz.

№	Sarf yoʻnalishi	Rejalashtirilgan summa (soʻm)	Amalga oshirilgan summa (soʻm)	Izoh
1	Shamollatish tizimini modernizatsiya qilish	15 000 000	14 500 000	Yangi ventilyatorlar oʻrnatildi



№	Sarf yoʻnalishi	Rejalashtirilgan summa (soʻm)	Amalga oshirilgan summa (soʻm)	Izoh
2	Konditsionerlar va issiqlik sozlagichlarini oʻrnatish	12 000 000	11 800 000	4 ta xona jihozlandi
3	Ish joylarini issiqlikdan himoya qiluvchi materiallar bilan jihozlash	8 000 000	7 700 000	Issiqlikka chidamli panellar oʻrnatildi
4	Shovqinni kamaytirish vositalarini oʻrnatish	6 000 000	5 900 000	Aks-sado yutuvchi devorlar oʻrnatildi
5	Maxsus dam olish zonalari tashkil etish	10 000 000	9 500 000	2 ta xona dam olishga moslashtirildi
6	Yoritish tizimini energiya tejovchi chiroqlar bilan almashtirish	5 000 000	4 900 000	LED yoritish tizimi joriy etildi
7	Ishchilar uchun gigiyenik sharoitlarni yaxshilash (dush, hojatxona)	7 000 000	6 800 000	Yangi sanitariya tugunlari oʻrnatildi



№	Sarf yo‘nalishi	Rejalashtirilgan summa (so‘m)	Amalga oshirilgan summa (so‘m)	Izoh
8	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	3 000 000	2 900 000	Suv dispenserlari o‘rnatildi
Jami		66 000 000	64 000 000	

2-rasm. “Samoinur Akfa” MCHJ da noqulay mehnat sharoitini yaxshilash bo‘yicha tadbirlar rejasi.

Men tavsiya qilgan tadbirlar bo‘yicha korxonada hodimlar salomatligiga e‘tibor ancha yaxshilandi. Korxona ish samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Bu mehnatni muhofaza qilish choralarining iqtisodiy samaradorligini bashorat qilish usuli bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishga va diskontlashni hisobga olgan holda ularni amalga oshirishdan tejashni ko‘rib chiqishga majbur qiladi.



3-rasm. “Samoinur Akfa” MCHJ dagi ish jarayoni.



Tadbirlarni amalga oshirishning iqtisodiy samaradorligi ko‘pincha noqulay mehnat sharoitlari va tadbirlarni amalga oshirish xarajatlaridan kelib chiqadigan iqtisodiy zarar o‘rtasidagi farq bilan belgilanadi. Oldingi olingan zarar chora-tadbirlarni amalga oshirilishidan oldin va keyin noqulay mehnat sharoitlaridan iqtisodiy zararni kamaytirish bilan belgilanadi.

Mehnatni muhofaza qilish choralarining iqtisodiy samaradorligini baholashda ishlatiladigan tarkibiy qismlar soni bir necha o‘nga yetishi mumkin.

Umumiy zararni hisoblashda muayyan chora-tadbirlar majmuini amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha ko‘plab tarkibiy qismlar hisoblab chiqiladi. Komponentlar mehnat sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradigan tashkilotning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab ma’lum formulalar va usullar bo‘yicha hisoblanadi. Yo‘qotishlarning qiymatlari va ularning pasayish ko‘rsatkichlari dastlabki hujjatlarda ekspert usuli bilan aniqlanadi.

Zararning tarkibiy qismlarini to‘liq hisobga olish tadbirlarni moliyalashtirish rejasini shakllantiradi, bu esa minimal xarajatlar bilan mehnatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish orqali samara olishga imkon beradi, shuningdek, mehnat sharoitlarining tashkilotning iqtisodiy ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatadi[6].

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy rag‘batlantirish usullari boshqaruvning bozor mexanizmlari qonunlariga asoslanishi kerak. Iqtisodiy rag‘batlantirishning boshlang‘ich printsiplari ish beruvchilarning iqtisodiy manfaatlariga ta’sir qiladigan va iqtisodiy foyda keltiradigan usullar samarali bo‘ladi degan xulosaga kelish noto‘g‘ri hisoblanadi. Eng oddiy usuldagi mehnat muhofazasini boshqarish qiymat jihatidan baholangan natijalar amalga oshirilayotgan xarajatlardan oshib ketishi kerak [6,7].



Bugungi kunda korxonalarni xavfsiz texnologiyalar va ishlab chiqarish vositalarini yaratishga iqtisodiy jihatdan ikki usul bilan qiziqtirish mumkin: profilaktika choralari uchun ijtimoiy sug'urta jamg'armasi mablag'laridan qisman foydalanish va ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan majburiy sug'urta qilish uchun sug'urta ta'riflarini aniqlash.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ish beruvchi mehnat sharoitlarini qonun bilan belgilangan holatda yaxshilashni amalga oshirishi shart. Normalarning bajarilishi oldindan nazorat qilinganligi sababli, ularga rioya qilmaslik uchun javobgarlik qonun bilan belgilab qo'yilgan. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy ijtimoiy sug'urta qilish uchun sug'urta tariflariga chegirmalar va nafaqalarni hisoblash metodologiyasida sug'urta qildiruvchining ish sharoitlari bo'yicha ish joylarini sertifikatlash darajasi va dastlabki va davriy tibbiy ko'riklardan o'tganligi hisobga olinadi[8]. Korxonada iqtisodiy samaradorlik bu alohida masala lekin, bu mehnat muhofazasi bo'yicha tashkil qilingan chora- tadbirlar samaradorligiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq hisoblanadi.

Xulosa

Bugungi kunda ishlab chiqarish korxonalaridagi eng katta muammo korxonada yuz berayotgan baxtsiz hodisalar va ularga sarflanayotgan iqtisodiy zararlar hisoblanadi. Ish beruvchi mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun sarflagan iqtisodiy zarar ko'lami, baxtsiz hodisa yuz berganda yo'qotiladigan iqtisodiy zarar o'rtasidagi tafovutlarni tahlil qilishi zarur. Korxonada yaratilgan sanitar- gigiyenik me'yorlar va ularga ajratilgan mablag'lar korxona iqtisodiyotiga jiddiy zarar ko'rsatmoqda. Shuni hisobga olgan holda, mehnatni muhofaza qilish choralarining ish samaradorligiga mehnat sharoitlarini yaxshilash orqali erishiladi, bu baxtsiz hodisalar va aniqlangan kasbiy kasalliklar sonining kamayishi, vaqtincha mehnatga



layoqatsizlik kunlarining kamayishi, ishchilarning sog‘lig‘i yaxshilanishi, mehnat unumdorligining oshishi va boshqalar bilan tasdiqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Безопасность жизнедеятельности. Учебник для студентов средних проф. учеб. /С.В. Белов, В.А. Девисилов, А.Ф. Козьяков и др.; Под общ. ред. С.В. Белова. – 3-е изд., испр. и доп. – М.: Высш. шк., 2003. – 357 с.

2. Гигиена труда. Руководство по гигиенической оценке факторов рабочей среды и трудового процесса. Критерии и классификация условий труда. Руководство Р 2.2.2006-05.

3. Горина Л.Н. Охрана труда на предприятиях автомобильного транспорта: учеб. Пособие. - Тольятти: ТГУ, 2003. - 139 с. 6. Горина Л.Н. Управление безопасностью труда: Учеб. пособие. – Тольятти: ТГУ, 2005. – 128 с.

4. Turakulova G. “Ishlab chiqarish korxonalarida mehnat muhofazasi tizimi faoliyatini samaradorligini tahlili va monitoringi” ISBN : 978-9910-08-092-0

5. TurakulovaG. “The Nature and Aims of Ergonomic” “Teacher” 2022.176p

6. TurakulovaG. “WAYS TO REDUCE THE EFFECTS OF HARMFUL SUBSTANCES IN THE ATMOSPHERE THAT THREATEN THE WHOLE WORLD” "Экономика и социум" №11(126) 2024

7. Popov V. M., Person’s safety in the information society. Person’s safety in modern

conditions. Materials of the VIII intereducation establishments conference. – Kharkiv

NFU,2008. – 57-58 pages

8. www.google.com